

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI



Referat

MAVZU: XX ASR ITALYAN ADABIYOTIDA
YOSHLAR MAVZUSI TALQINI

Bajardi: Ergashova B.

Tekshirdi: Hakimov M.

Samarqand – 2015

**MAVZU: XX ASR ITALYAN ADABIYOTIDA YOSHLAR MAVZUSI
TALQINI**

REJA:

- 1.Adabiyot-inson ongiga ta'sir etuvchi samarali kuch**
- 2.XX asr italyan adabiyotida yoshlar va o'smirlar mavzusi**
- 3.Italo Kalvino asarlarida yoshlik obrazining yaratilishi**
- 4.Xulosa**

Yillar, asrlar o'tgani sayin inson kundalik hayotida turlicha o'zgarishlarga, yangiliklarga to'qnash kelmoqda. Bu o'zgarishlar faqatgina kundalik hayotimizni emas, balki, hayotimizning butun jabhasini qamrab olmoqda. Ushbu tezkor holatni, fan tili bilan aytganda, tub burilishni adabiyot sohasida ham kuzatish mumkin. Qadimda shunchaki ertak va afsonalarni tinglab yashagan xalqning, endigi kunda o'zi katta-katta romanlarga aylanib bormoqda. Balki adabiyot turli davrlarda turlicha ko'rinishga ega bo'lgandir, ammo bunda maqsad bitta: insonni real hayot qiyinchiliklaridan bir lahzaga bo'lsa-da, uzoqlashtirish, ma'lum bir ma'noda unga ma'naviy va ba'diiy ozuqa ulashish, ijobiy jihatdan uning dunyoqarashiga ta'sir etish.

Asarlarda qahramonlar turlicha bo'lishi mumkin, lekin ularni bir uyg'unlik jipslashtirib turadi; bu esa insonning yuksakligi va mukammalligi g'oyasidir. Atrofidagilarining tajribalarini o'rganmasdan turib, kishi o'zicha buyuklikka erisha olmaydi, ya'ni yangilik yaratishi mushkul, sababi insonga birinchi o'rinda saboqni tabiat bersa, ikkinchi bo'lib muhit beradi. Bugun siz bilan necha mingyillik tarixga ega bo'lgan, hayotiy voqealarni hech qanday berkitishlarsiz, yumshatishlarsiz akslantiradigan italyan adabiyotiga nazar solamiz, shuningdek, italyan o'smirlar adabiyotiga alohida to'xtalib o'tamiz. XX asr dunyo adabiyotidagi asosiy mavzular: urush talofatlari, insonlarga yetkazgan ma'nan va moddiy zararlari, urush ortida ocharchilikdan qiynalgan bolalar hayoti, ayollarning azobini tasvirlashdan iborat edi. Ushbu mavzular, erkinlik uchun, farovon hayot uchun kurash g'oyalari italyan adabiyotini ham chetlamay o'tmadi. Umberto Eko, Paolo Mastrocola, Natalia Ginzburg, Italo Kalvino kabi bir qator italyan adabiyotining yirik vakillari o'z asarlarida ijtimoiy tengsizlik, urush ta'siri hamda hayot shavqatsizligi jajji qalbini qora qurumga to'ldirgan beg'ubor bolalar hamda kattalikka da'vo qilib, ulg'ayib borayotgan o'smirlar hayotini tasvirlaydi, ularga yorqin kelajak qurishda to'squinlik qilayotgan yovuz kuchlarni qoralaydi

Novachento davri^{*} ning yirik namoyandalaridan biri, asarlarida qahramonlar taqdirini emas, balki ular vositasida o'sha davrning hayotini yoritib beruvchi, yangirealizm va postmodernizm yo'nalishlarining o'tkir qalam sohiblaridan biri Italo Kalvino ijodi va uning o'ziga xos uslubi haqida fikr yuritamiz. Adib o'z tarjimai holi haqida shunday yozadi: "Men "adibning faqat asarlarigina e'tiborga olinishi kerak", degan qarash tarafdoriman. Shu sababdan, o'zimning avtobiografiyam haqida gapirmayman, ba'zan xato aytaman, ba'zan esa yangisini oldingisidan ko'ra boshqacharoq tarzda hikoya qilaman. Kishilar mening hayot yo'lim bilan emas, balki asarlarim bilan qiziqishini istayman".

Adib 1923-yil Agronom Jakamo Kalvino oilasida tug'iladi. Onasi Eva Mameli Pavio Universitetida dotsent botanik sifatida faoliyat yuritadi. Ziyoli oiladan chiqqan Kalvino dastlab Kassini nomidagi gimnaziya litseyida ta'lim oladi, keyinchalik o'qishini Turin universitetining agronomiya fakultetida davom ettiradi. Teatr, adabiyot va kinoga bo'lgan qiziqishi sababli o'qish davomida ko'plab drammlar yaratadi. Bularga misol qilib "*Odamlar haqida komediya*", "*Men jinnimi yoki boshqalar*", "*Urushga kirish*" "*Qirolichaning bo'yintumori*" kabibir qator asarlarini keltirish mumkin. Ikkinchi jahon urushi adibning ijodiy faoliyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Urush faqatgina italyan adiblari ijodiga emas, butun dunyo adiblari ijodiy faoliyatiga kirib boradi. Agar Sharq-u G'arbda urush yillarida yaratilgan asarlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ulardagi muhit bugungi kun insonini o'z domiga torta olishi, qahramonlar bilan birga kulib, birga yig'lashga unday olishi muqarrar. Nega biz yangi adabiyotni emas XX asr adabiyotini o'qishni afzal ko'ramiz? Sababi, og'ir hayot, qiyinchiliklarga to'la muhit bizga begona va biz uchun qiziq tuyuladi. Balki, haqiqatan, muhit asar qanday saviyada yaralishi uchun o'ta muhim omildir. Urushning vahshiyliklarini o'z ko'zi bilan ko'rgan va boshidan o'tkazgan Kalvino o'z ijodida o'zi qatori jahon urushidan azob chekkan bolalar, o'smirlar va yoshlar taqdirini yoritib berishga qaror qiladi va ushbu yo'nalishda serqirra irod mahsullarini yaratadi. Umri davomida nafaqat, ijodiy,

^{*} Italyan adabiyotida bir ming to'qqiz yuzinchi yillar, ya'ni XX asr Novachento davri deb yuritiladi. Ushbu davrlashtirish Dante ijodidan boshlangan.

balki, siyosiy va iqtisodiy jabhalarda ham yuksak faollikka ega bo'lgan Kalvino 1985yilda Sienada vafot etadi. Uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida hamkasb do'stlari N. Jinzburg, N. Bobbio, C. Segre, M. Milalar Kalvino Mukofotini joriy etishdi va bu mukofot yozuvchilarning nasrdagi ilk muvaffaqiyatli asarlari uchun beriladigan bo'ldi. Bundan tashqari, 2013yilda adib tavalludining 90 yilligiga bag'ishlanib katta tadbirlar amalga oshirildi.

Adib o'z ijodida o'zga yozuvchilarda takrorlanmas uslublardan foydalanadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u qahramonlarni ham, voqealarni ham jonli tarzda ko'rsatadi, ya'ni uning asarlarini o'qigan odam, hech ikkilanishsiz o'sha asar muhitiga tushib qoladi. U urush kechinmalariga o'smirlar nigohi bilan qaraydi. U yaratgan asarlarning qahramonlari urushdan azob chekayotgan, ammo yashash uchun kurashayotgan, olamda hukmronlik qilayotgan yovuzliklardan, xudbinliklardan soddalik, beg'uborliklari bilan to'qilgan qobiqlari bilan himoyalangan bolalar hisoblanadi. Masalan, *“Qarg'aning so'nggi tashrifi”* hikoyasidagi bosh qahramon Liberoso obrazida inson hech qanday jonivorlarga, o'simliklarga ozor yetkazmasdan ona tabiatning aziz farzandi sifatida ulg'ayishi kerakligi g'oyasi ilgari surildi.

Urush keltirgan ocharchilik beg'ubor bolalarni yashash uchun kurashda turli kuylarga soladi. Bunga misol tariqasida adibning *“O'rgimchak inlari so'qmog'i”* hikoyasini keltirishimiz mumkin. Asar Italo Kalvinoning ilk romani hisoblanib, u 1947-yil nashr etilgan. Voqealar Italiyaning Liguriya viloyatida Ikkinchi jahon urushi davrida sodir bo'ladi va neorealizm yo'nalishida, ya'ni ortiqcha bo'rttirishlarsiz, bir bolakay nuqtayi nazari orqali yoritiladi. Adibning ta'kidlashicha, asardagi ba'zi voqealar uning o'zi bilan sodir bo'lgan. Ushbu asarning bosh qahramoni Pin ismli o'n yashar yigitcha bo'lib, u urush tufayli otonasidan ayriladi va opasi bilan yolg'iz qoladi. Kambag'al oiladan chiqqan, ta'lim-tarbiya ko'rmagan Pin kichkinaligidan tirik qolish tashvishida og'ir mehnat qilib, yosh bo'lsa-da, bolalarga qo'shilaolmasdan kattalar olamida o'ziga o'rin qidiradi. Ammo kattalar uchun u shunchaki bir masxaraboz edi, xolos. Oyoq kiyim do'koniga kelgan xaridorlarni xizmatlarini qilib pul topadi va opasi Nera uchun

“mijoz” izlaydi. Urush shunchalik og’ir keladiki, tirik qolish uchun hatto ukalik g’ururini ham urush yasagan qalbdagi qabrlarga ko’mib qo’yadi. Biz bolakay Pin obrazini u kirishni xohlagan kattalar olami va qiyinchilikdan hayqirayotgan bolalar olamining o’rtasida o’rgimchak to’rida o’ralashib qolgan va bu to’rdan chiqish uchun yordam bera oladigan bir do’st izlayotgan soddagina urush qurboni sifatida tasavvur qilishimiz mumkin.

Katta odamlar o’zlari bilan qurol olib yurishadi, demak, mening ham qurolim bo’lsa, odamlar meni katta odam sifatida qabul qilishadi”-degan sodda hayol bolakayni ko’p qiyinchiliklarga yetaklaydi. Tutqunlikda u kattalar olamining vahshiyliklari va qabihliklariga guvoh bo’ladi. Bu yerda unga Qizil Bo’ri laqabli bir partizan yigit yordam beradi. Uning qamoqdan qochishiga Kujino ismli yigit, Pinning nazdida “U hayotida uchratgan eng yaxshi odam” , ko’maklashadi. Asardagi partizanlar boshlig’i Dritto botir va tengsiz kuchga ega pahlavon, o’z odamlarini ortidan ergashtira oladigan oqil yo’lboshchi sifatida tasvirlanadi, ammo uning oshpaz Manchinoning xotini Jiliya bilan qilgan xiyonati uning misqollab to’plagan obro’sini havoga uchib ketishiga va bu oxirida uning o’limiga sababchi bo’lishiga olib keladi. Asarda nafaqat bir bolaning taqdiri, balki u yashagan davr siyosati, muhit beqarorligi hamda ijtimoiy hayoti hech qanday yashirishlarsiz yoritib berilgan. Asar haqida Kalvinonig do’stlaridan biri bo’lgan Pavese shunday deydi: “Bu hikoya qahramonlarni emas, balki voqea va sarguzashtlarni namoyish qiladi, buzuq opaning ukasi bo’lgan bolakay obrazi orqali sevgining hayvoniy dunyosi, urushning qalblarda qoldirgan bitmas jarohati qoralanadi va bolalar olamining sofligi ko’rsatib beriladi”. Pin o’zining olamiga kirib kela olgan Kujino bilan asar so’ngida yana uchrashadi va Kujino boshqa erkaklar kabi ayollar bilan ketmasdan, bolakay Pin bilan qolishni afzal ko’radi. Pinning opasi esa asar so’ngida bir nemis askari tomonidan otib o’ldiriladi. Ushbu asarni o’qib chiqar ekanmiz, taniqli adibimiz O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani ko’z o’ngimizda jonlanadi. Sababi, asardagi qahramonlar qismatidagi yoziqlar qaysidir ma’noda o’xshash, to’liq bo’lmasa-da, ular mushtarak qiyinchiliklarni boshidan kechirishadi. Bunga misol qilib, Jiliya va Ra’noning urushda qon kechib yurgan

erlariga qilgan xiyonatini, Kimsanning dushman qo'lida ko'rgan azoblari-yu, Pinning tutqunlikda chekkan jabrlarini keltirish mumkin. Asarda bir o'rinda qahramonimiz shunday so'zlarni ta'kidlaydi: "Balki hayotimda kerakli ishlarni amalga oshira olmasman, ammo tarix mana shunday arziyas belgilardan yaraladi. Balki ertaga o'larman, balki yaramas nemisdan oldinroq, ammo mening o'limimdan oldin qilgan ishlarim, va hatto, o'limimning o'zi tarixning bir bo'lagiga aylanadi. Men surgan hayollar ertamning o'tmishiga va butun insoniyat ertasining o'tmishiga ta'sir etadi". Yuqorida aytib o'tilganidek, Kalvinoning barcha asarlari real voqealar asosida yaratilgan. Agar ularning barchasi tahlil qilinadigan bo'lsa, adabiyotda yangi uslub yaratilishi mumkin. Muhimi uning asarlarining bosh g'oyasi-har qanday jamiyatda ham bolalarni yaxshi tarbiyalash va ularga bor e'tiborni qaratishdir. Ya'ni uning asarlari o'smirlar bilan bog'liq psixologik muammolar yechimini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, ertangi kunning-kelajakning egasi, asoschisi sanalmish yoshlarning bolalarning tarbiyasiga, ta'limiga befarq bo'lmaslik, ularni adabiyotga, kitobga oshnolik ruhida kamolotga eltish, asosiy vazifamizdir. Bugungi davr bolalar adabiyotini yanada rivojlantirish hamda ular ongida badiiy so'z ta'sirida ertangi kunga ishonch, vatanparvarlik, hayotni sevisish hislatlarini shakllantirishga urg'u berish lozim. Bu borada adabiyot kuchli vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- *“Il sentiero dei nidi di ragno”* (Turin, Einaudi, 1947y)
- *“I Racconti”* (Turin, Einaudi, 1958y)
- *“Ultimo viene il corvo”* (Turin, Einaudi, 1949y)
- *“Marcovaldo, ovvero Le stagioni in citta”* (Turin, Einaudi, 1963y)
- *Google.it*. Da *Wikipedia*, L'enciclopedia libera.